


Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik


2018 yilning yanvar-sentyabrida 8899 yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,5 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida (27,5 %), sanoat tarmog'ida (19,1 %), qurilishda tarmog'ida (12,3 %), yashash va ovqatlanishda (8,6 %), tashish va saqlashda (5,2 %) tashkil etgan.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




2018 yilning yanvar-sentyabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik sub’yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



2018 yilning yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlik sub’yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo‘yicha eng ko‘p ko‘rsatkich Yakkasaroy tumanida 46,7 birlikda, Bektemir tumanida 37,5 birlikda, Mirobod tumanida 35,9 birlikda, Chilonzor tumanida 31,7 birlikda bolib, Mirzo-ulug’bek tumanida 25,2 birlikda va Yunusobod tumanida 24,8 birlikda, o‘rtacha ko‘rsatkich 20,1-25,2 birlik oralig’ida aniqlandi. Uchtepa tumanida 19,5 birlikda, Yashnobod tumanida 19,5 birlikda, Olmazor tumanida 17,6 birlikda, Shayh ntohur tumanida 17,5 birlikda, ushbu ko‘rsatkich past bo‘lib qolmoqda.


**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentyabr holatiga.**



2016 yilning yanvar- sentyabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 19,9 birlikda bo'lib, 2017 yilda 21,4 birlikni tashkil etdi. 2018 yilda bu ko'rsatkich 23,9 birlikka yetdi. Bu esa, 2016 yil ko'rsatkichidan 4 birlik yuqori.

2018 yilning yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 62,2 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-sentyabrida 63,4%). YaIM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

**Kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushining pasayishi
dinamikasi yanvar-sentyabr holatiga, foizda**



**2018 yil yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlikning asosiy tarmoqlarda
hududlar bo‘yicha ulushi (% da)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Toshkent shahri	71,6	73,6	50,2	51,6
tumanlar:				
Olmazor	90,6	96,3	71,9	69,6
Bektemir	63,7	37,7	96,0	91,5
Mirzo-Ulug’bek	43,5	66,4	55,7	71,8
Mirobod	42,6	41,0	33,7	32,9
Sergeli	85,0	99,4	46,9	14,7
Uchtepa	91,2	90,3	85,2	61,2
Chilonzor	82,6	83,0	58,0	62,4
Shayh ntohur	53,5	43,7	57,6	37,9
Yunusobod	85,7	85,2	32,2	75,0
Yakkasaroy	89,8	98,1	66,8	73,1
Yashnobod	71,0	99,7	39,9	61,0

Hududlar bo‘yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Uchtepa tumanida (91,2 %), Olmazor tumanida (90,6 %), Yakkasaroy tumanida (89,8 %), Yunusobod tumanida (85,7 %), Sergeli tumanida (85,0 %) va Chilonzor tumanida (82,6%) tashkil etadi.

Qurilishda Yashnobod (99,7 %), Sergeli (99,4 %), Yakkasaroy (98,1 %) Olmazor (96,3 %) va Uchtepa (90,3) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Bektemir (96,0 %), Uchtepa (85,2 %) va Olmazor (71,9 %) tumanlari tashkil etadi.


2018 yilning yanvar–sentyabrida kichik tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 20359,8 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 71,6 %) yoki 2017 yilning yanvar– sentyabriga nisbatan o‘sish sur‘ati 108,5 % ni tashkil qildi;
- 7368,6 mlrd. so‘mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 51,6%) o‘zlashtirildi, yoki 2017 yilning yanvar– sentyabriga nisbatan o‘sish sur‘ati 125,4 % ni tashkil qildi;
- 4786,2 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 73,6 %) bajarildi, yoki 2017 yilning yanvar– sentyabriga nisbatan o‘sish sur‘ati 114,0 % ni tashkil qildi;
- 17226,1 mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatilib (jami xizmatlar xajmining 50,2 %), yoki 2017 yilning yanvar– sentyabriga nisbatan o‘sish sur‘ati 105,5 % ni tashkil qildi;
- chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 76,2 % yoki 15999,8 mlrd. so‘mi (o‘sish sur‘ati 3,2 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;
- 482,4 mln. AQSh dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 22,8 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 122,8 mln. AQSh dollariga yoki 34,1 % ga ko‘p;
- avtomobil transporti yuk aylanmasining 5,7 %ga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 70,2 %) ko‘payishi ta‘minlandi;
- yo‘lovchi aylanmasining esa 3,1 %ga (umumiyligi yo‘lovchi aylanmasining 78,1 %) ko‘payishi ta‘minlandi;

2018 yilning yanvar-sentyabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirdorlikning ulushi, foizda




2018 yil yanvar-sentyabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’ati



Hududlar bo‘yicha eng ko‘proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Olmazor tumani (2977,6 mln.so‘m), Yashnobod tumani (2546,2 mln.so‘m), Sergeli tumani (2450,5 mln.so‘m) va Chilonzor tumani (2219,7 mln.so‘m) hissasiga to‘g’ri keladi. Bektemir (1433,3 mln.so‘m) Yakkasaroy tumanida (1198,5 mln.so‘m) va Mirobod tumanida (746,1 mln.so‘m) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo‘lib qolmoqda.




2018 yil yanvar-sentyabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’ati



Hududlar bo‘yicha ko‘proq chakana tovar aylanmasi hajmi Uchtepa (2519,6 mlrd.so‘m), Bektemir (2315,5 mlrd.so‘m), Chilonzor (2290,7 mlrd.so‘m), Shayhontohur tumani (2172,1 mlrd.so‘m) va Yunusobod (1943,0 mlrd.so‘m) tumanlari hissasiga to‘g’ri keladi.



2018 yil yanvar-sentyabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati




Hududlar bo‘yicha ko‘proq xizmatlar hajmi Yunusobod (2079,2 mlrd.so‘m), Shayh ntonohur tumanida (2046,1 mlrd.so‘m), Mirzo-Ulug’bek (1923,9mlrd.so‘m), Chilonzor (1891,3 mlrd.so‘m) va Mirobod (1730,4 mlrd.so‘m) tumanlari hissasiga to‘g’ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 2018 yil III chorak yakunlariga ko‘ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi. Unda 254 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma‘lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 13,3 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 70,0 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 16,2 % va 66,2 %, xizmatlar sohasida – 10,9 % va 74,3 %, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida – 0 % va 75,0 %, sanoatda – 11,8 % va 66,7 %ni tashkil qilganini ko‘rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 21,6 %, qurilishda – 16,7 %, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida – 25,0 %, xizmatlarda – 14,9 % va savdoda – 17,6 %ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik (biznes)da tarmoqlar kesimida iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil III chorak uchun, foizda



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 23,5 % sanoat korxonalari, 35,3 % – savdo, 53,5 % – xizmatlar, 0 % – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 33,3 % – qurilish tarmog'ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, foizda



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibotgan chora tadbirlari natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning o'zgarishsiz baholanayotganligini xulosa qilish mumkin.